



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

FARG'ONA VODIYSIDAGI JADIDCHILIK HARAKATIDA OBIDJON MAHMUDOV FAOLIYATINING TUTGAN O'RNI

Olimova Zulfiyaxon Ibrohimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar”

fakulteti Tarix yo’nalishi 3-bosqich talabasi

zulfiyaolimova98@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada farg‘ona vodiysidagi jadidchilik harakatida Obidjon Mahmudov faoliyatining tutgan o‘rni va uning xalq manfaatlarini o’ylab amalga oshirgan ishlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Obidjon Mahmudov bu davrda Farg’onadagi jadidlar orasidagi xalqparvar jadidlardan biri hisoblangan. O’zining faoliyati davomida matbuot sohasini xalqni marifatli qilish, ijtimoiy – siyosiy faolligini oshirishning muhim vositasi deb bildi va shu maqsad yo’lida tinimsiz harakat qildi.

Kalit so’zlar: Obidjon Mahmudov, Farg’ona jadidlari, “Sadoyi Farg’ona”, “Tirik so’z”, Rossiya, Xitoy, qog’oz, Ashurali Zohiriyy, Hamza, matbuot tizimi, Cheleken, Sho’rsuv.

Аннотация:

В этой статье представлена информация о роли деятельности Абиджана Махмудова в джадидистском движении в Ферганской долине и его работе в интересах народа. Абиджан Махмудов в этот период считался одним из народных джадидов среди джадидов Ферганы. На протяжении всей своей карьеры он рассматривал сферу печати как важное средство просвещения людей, повышения их общественно – политической активности и неустанно работал для достижения этой цели.

Ключевые слова: Абиджан Махмудов, ферганские джадиды, “Садой Фергана”, “Живое слово”, Россия, Китай, бумага, Ашурали Захири, Хамза, система прессы, ведро, рассол.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

Annotation:

This article contains information about the role of the activities of Obidzhan Mahmudov in the jadidism movement in the Fergana Valley and his work, thinking about the interests of the people. Obidzhan Mahmudov was considered one of the most popular jadids among the jadids of Fergana during this period. During his career, he saw the press sphere as an important means of making the people marified, increasing their socio – political activity, and worked tirelessly towards this goal.

Keywords: Obidjon Mahmudov, Fergana jadids, “Sadoyi Fergana”, “Living Word”, Russia, China, paper, Ashurali apparent, Hamza, Press system, Cheleken, Shursuv.

XX asr boshlariga kelganda Farg’ona vodiysidagi jadid ma’rifatparvarlari orasidan Turkistondagi jadidchilik harakatining rivojlanishiga o’zining munosib va sezilarli hissasini qo’shgan ko’plab taniqli namoyondalar yetishib chiqdilar va faoliyat olib bordilar. Misol tariqasida aytadigan bo’lsak Obidjon Mahmudov yirik sarmoyador, birinchi tog’-kon injeneri, Ashurali Zohiri yirik tilshunos olim, mukammal o’zbekcha – ruscha lug’at muallifi, Hamza iste’dodli dramaturg, A.Ibodiy, Dadamirza Qori esa yangi usul maktablari va ularning faoliyati uchun darsliklar yozgan muallimlardan edilar. I.Ibrat tilshunos olim, tarixchi olim sifatida, Cho’lpon va So’fizodalar esa mashhur jadid namoyondasi va shoirlar edilar. Inrohim Davron esa atoqli taraqqiyparvar publitsist hisoblangan. Ana shunday ma’rifatparvar ziyolilardan biri Obidjon Mahmudov edi. Turkiston o’lkasi Rossiya imperiyasining mustamakasiga aylantirilgach, o’lkada kapitalistik bozor munosabatlari shakllana boshladi. Ana shunday bir jarayonda mahalliy xalq vakillari orasidan yetishib chiqqan mukldor tabaqasi oxir-oqibatda o’z xalqining tub manfaatlari uchun kurashishdan juda ham qo’rqrar edilar. Shu sababli ham podsho hukumati amaldorlar va burjuaziya qatlami o’sib kelayotgan o’zbeklarning ichidan chiqqan mahalliy sarmoyadorlarning iqtisodiy – siyosiy huquqlarini cheklab, uning rivojlanishi va iqtisodiy jihatdan qudratli bo’lib ketishi masalalarinu o’ylb ularga to’siq qo’ygan edi. Ammo shularga qaramay qadimgi vaqtarda ham Buyuk Ipak yo’linig nazoratini o’zining qo’l ostida saqlagan, o’zlari tayyorлага hunarmandchilik buyumlari bilan jahon bozorlarini to’ldirgan bizning ota – bobolarimiz yurtida mustamlaka sharoitida



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

ham ishbilarmon hamda tadbirkor, vatan va millat uchun o'z jonini berishga ham tayyor bo'lган fidoyilar yetishib chiqqan edilar. Turkiston o'lkasining yirik sarmoyadorlaridan biri hiosblangan taniqli jadid namoyondasi Obidjon Mahmudov shunday millatparvar kihilardan biri edi. "Obidjon Abduxoliquovich Maxmudov, Obid chatoq (1871, Marg'ilon — 1936.21.11) — Turkistondagi jadidchilik harakati vakili, yirik sarmoyador, noshir va jamoat arbobi. M. Qo'qonga ko'chib kelib, madrasa ta'limini oldi. taxminan 1898-yilda Cheleken yarim orol (Kaspiy dengizi)ga borib, turli ishlar bilan mashg'ul bo'ldi. Sherikchilikka olgan yeridan neft chikib, boyib ketadi. Sankt-Peterburg untining tog'kon muhandisligi fakultetini tugatgan. Qo'qonga qaytgach, tog'-kon sanoati bilan shug'ullanib, Farg'ona vodiysida bir necha neft konlarini ochishda ishtirok etgan" ¹. Sho'rsuvdag'i oltingugurt konini sotib olgan. Farg'ona vodiysidagi jadidchilik harakatida faol qatnashgan va ularni moddiy tomonlama ta'minlab turgan. 1914-yilda Qo'qonda bosmaxona tashkil qilgan. „Sadoi Farg'ona“ (1914), „Tirik so'z“ (1917) va rus tilida chiqqan „Ferganskoye exo“ (1914) gaz.larining muharriri va noshiri. Matbuotda dolzarb maqolalar bilan chiqib, Turkiston xalqini ma'rifatli bo'lishga da'vat etgan, uni ozodlik uchun kurashga chaqirgan. Zamonasida "Farg'ona jadidlarining peshqadami" deya ta'riflangan. Obidjon Mahmudov ishblarmon sanoatchi, tadbirkor inson edi. U 1906-yil Qo'qon shahrida tashkil topgan savdo – sanoat birga jamiyatining ham a'zosi bo'lган" ²

Obidjon Mahmudov tahririyatga Qo'qoning o'sha davrdagi yirik jadid adiblari: Ashurali Zohiriy, Ibrohim Davron, Nuriy Usmonov, A.Ibodiy va boshqa insonlarni jalb etgan. Ushbu gazeta nafaqat Turkiston o'lkasida balki, Rossiyadagi musulmonlar kishilar orasida ham mashur va ma'lum bo'lган. Muhbirlarning say – harakatlari natijasida adabiy – badiiy, siyosiy – iqtisodiy, ilmiy – tarbiyaviy mavzulardagi maqolalar va badiiy asarlar to'plangan va e'lon qilingan. Gazeta jadidchilik g'oya va maqsadlarining jarchisi sifatida maydonga chiqdi. Uning sahifalarida ilm – ma'rifat nihoyatda darajada ulug'langan va e'zozlangan hamda yangi usuldagи maktablar targ'ib qilingan, bid'at – xurofotlar, xalqimiz orasida zararli va nohush odatlar jumladan: aroqxo'rlik, tamaki mahsulotlar iste'moli,

¹ <https://wikipedia.org sayti>

² O'Zmda 19-fond, 1-ro'yxat



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

dabdabali to'y marosimlari o'tkazish, isrofgarchilik holatlari keskin tanqid ostiga olingan va qoralangan. Mustamlaka hukumatining amaldorlari ham "Sadoyi Farg'ona" gazetasining ilg'or yo'nalishdagi nashr sifatida tan olgan. Uning noshiriga esa o'z ishining ustasi va tadbirkor shaxs sifatida qaraganlar va shunday baho bergenlar. Ayni damda, Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi hukmronligidan albatta xalos bo'lishi kerak, degan fikrlarni bir necha marotaba aytganligi uchun ham ishonchsizlik bilan qaraganlar.

Obidjon Mahmudovning faoliyati ba unga mustamlakachi hukumatning qilgan munosabati haqida chet ellik olim Shahobiddin Yassaviy o'zining "Turkistonning achchiq haqiqatlari" nomli kitobida shunday deydi: "Obidjon Mahmud Turkiston muborizlaridan munavvar bir yozuvchidir. 1914-yil Xo'qandda "Sadoyi Farg'ona" isminda jarida nashr qilib, millatni birligina chaqirmoqda bo'lg'on. Yoyim esa, Turkiston bo'ylab, ko'pgina mutolaa qiluvchilarga ega edi. 1917-yilda ham "Tirik so'z" isminda siyosiy itloatlar nashriga jarida chiqorub yoymoqda bo'lg'on Obidjon Mahmud iste'morchi imperiolist ruslar tarafidan mamone'atlarga uchrab, "Sadoyi Farg'ona" va "Tirik so'z" degan milliy jaridalari musodara bo'lidi"³. Yana shuni ham alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, Obidjon Mahmudov tadbirkor shaxs bo'lgani sababli iqtisodiy masalalarga, xususan mahalliy sanoat, savdo va hunarmandchilikka alohida ahamiyat qaratgan. U o'zining "Sadoyi Farg'ona" dagi maqolalarining birida mahalliy qog'oz ishlab chiqarish hunarmandchiligidagi alohida to'xtalib, bu haqidagi o'zining fikrlarini bayon qilgan. Muallif o'z zamonasida qadimgi vaqtlardan beri o'lkadagi kitobat va saroy ishlari uchun ishlatiladigan qog'ozlar Rossiya va Xitoy mamlakatlaridan emas balki, Turkiston o'lkasining o'zidan, aynan olib qaraydigan bo'lsak Qo'qonning o'zida ishlab chiqarilar edi. Mazkur aytib o'tilgan qog'oz turlari shu yerning o'zida tayyorlanishi bilan birgalikda yana hamyonbop narxda ham edi. Ushbu qog'ozlar asosan Qo'qonning "Mo'yi Muborak" deb atalgan mavzesida ishlab chiqarilgan bo'lib, avvallari bu yerda 10-15 atrofida qog'oz objuvozlari ishlab turgan. Ammo muallifning ta'kidlashicha, ayni paytda bunday objuvozlarning ba'zilarigina ishlayotgan edi. Milliy qog'oz ishlab chiqarishning yo'qoli ketishidan xavotirga tushgan Obidjon

³ Shahobiddin Yassaviy Ismoil Shayx o'g'li. Turkistonning achchiq haqiqatlari. Ikkinchи nashri. Istanbul. 1964.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

Mahmudov hukumat rahbarligini mlliy hunarmandchilikniing ushbu turi o'sishiga e'tibor berisha chaqiradi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Farg'ona viloyatidagi jadidchilik harakatida Obidjon Mahmudov faoliyatining o'rni va roli beqiyos bo'lgan deya bamalol aytishimiz mumkin. O.Mahmudov millat taraqqiyoti to'lida nimaiki zarur bo'lsa barchasini ayamadi, xalq uchun hayrli ish bo'lsa, albatta unda ishtirok etdi. Rossiya imperiyasi mustamlaka apparatiga qarshi yakka- yakka kurash olib borish mumkin emasligini tuhungn holda, taraqqiyparvar kuchlarni birlashtirib, keng miqyosda ijtimoiy – siyosiy faoliyat olib bordi. Yana shuni ham alohida aytib o'tishimiz kerakki, barcha jadidlar qatori u ham mustaqillik uchun kurashish jarayonida iqtisodiy jihatdan mustaqillikka erishmasdan turib siyosiy, huquqiq, madaniy va diniy sohalarda mustaqillikka erishib bo'lmasligini yaxshi anglab yetgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shahobiddin Yassaviy Ismoil Shayx o'g'li. Turkistonning achchiq haqiqatlari. Ikkinci nashri. Istanbul. 1964.
2. Tojiboyev R. Birinchi noshir va muharir. Qo'qon sadosi. 1999.
3. Cho'lpon. Turkiston matbuoti. Yangi iqbol. 1915.
4. Qozoqov T. XX asr boshlarida Farg'ona vodiyidagi ijtimoiy- siyosiy ahvol va jadidchilik harakati. Dissertatsiya ishi. Toshkent-2001.
5. Shamsutdinov R. Jadidchilik: haqiqat va uydirma. Muloqot-1991
6. O'Zmda 19-fond, 1-ro'yxat
7. <https://wikipedia.org> sayti
8. <https://ziyouz.com> kutubxonasi